

MOLIYAVIY HISOBOTLARNI MHXSGA MOSLASHTIRISH: NAZARIY VA HUQUQIY YONDASHUVLARDAGI TAFOVUTLAR

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20591436>

Sharapova Shoxsanam Raxmat qizi

TOSHKENT KIMYO XALQARO UNIVERSITETI

Mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada moliyaviy hisobotlarni Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (MHXS/IFRS)ga moslashtirishning nazariy va huquqiy asoslari o'rganilgan. Tadqiqotda milliy buxgalteriya hisobi standartlari (BHMS) va MHXS o'rtasidagi konseptual farqlar, shuningdek, ularni uyg'unlashtirish zaruriyatini keltirib chiqaruvchi asosiy iqtisodiy omillar tahlil qilingan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida moliyaviy hisobotlarni MHXSga transformatsiya qilish jarayonining huquqiy bazasi, jumladan "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonun, Prezident farmon va qarorlari hamda Moliya vazirligi tomonidan qabul qilingan normativ hujjatlar ko'rib chiqilgan. Tadqiqotda transformatsiya jarayonining amaliy muammolari hamda ularning yechimiga doir takliflar ishlab chiqilgan.

Maqolaning ilmiy yangiligi MHXSga o'tish jarayonini nafaqat hisob tizimi islohoti, balki iqtisodiy integratsiyaning muhim omili sifatida kompleks yondashuvda tahlil qilishdan iborat. Natijalar moliyaviy hisobotlarning shaffofligini oshirish, investitsion muhitni yaxshilash va xalqaro moliya bozorlariga integratsiyani kuchaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar

MHXS, BHMS, moliyaviy hisobot, transformatsiya, xalqaro standartlar, huquqiy asoslar, shaffoflik, investitsion muhit.

DIFFERENCES IN THEORETICAL AND LEGAL APPROACHES TO THE ALIGNMENT OF FINANCIAL STATEMENTS WITH INTERNATIONAL FINANCIAL REPORTING STANDARDS (IFRS)

Sharapova Shoxsanam Raxmat qizi

Tashkent International University of Chemistry

Independent Researcher

Abstract

This article examines the theoretical and legal foundations of adapting financial reporting to International Financial Reporting Standards (IFRS). The study analyzes the conceptual differences between National Accounting Standards (NAS) and IFRS, as well as the key economic factors driving the need for their harmonization.

The legal framework of financial reporting transformation in the Republic of Uzbekistan is also explored, including the Law "On Accounting," presidential decrees and resolutions, and regulatory documents issued by the Ministry of Finance. In addition, the article identifies practical challenges in the IFRS transition process and proposes relevant approaches for their resolution.

The scientific contribution of the study lies in its comprehensive approach to IFRS adoption, viewing it not only as an accounting reform but also as an important factor of economic integration. The results of the research contribute to improving financial transparency, enhancing the investment climate, and strengthening integration into international financial markets.

Keywords

IFRS, NAS, financial reporting, transformation, international standards, legal framework, transparency, investment climate.

Kirish:

Bugungi globallashuv sharoitida iqtisodiy axborotlarning shaffofligi va taqqoslanishini ta'minlash har qanday davlat uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, moliyaviy hisobotlarning xalqaro talablarga mos ravishda yuritilishi investitsiya muhitini yaxshilash, xorijiy investorlar ishonchini oshirish va milliy iqtisodiyotning jahon bozoriga integratsiyalashuvini jadallashtirishda muhim omil hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, moliyaviy hisobotlarni xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (MHXS/IFRS) asosida yuritish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ham so'nggi yillarda buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PF-4611-son Farmoniga muvofiq, MHXSni joriy etish va moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarga mosligini ta'minlash ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Ushbu hujjatda yirik xo'jalik yurituvchi subyektlarda MHXSni bosqichma-bosqich joriy etish, mutaxassislar malakasini oshirish hamda buxgalteriya hisobini xalqaro talablarga moslashtirish zarurligi alohida ta'kidlangan.

Shu bilan birga, moliyaviy hisobotlarni MHXSga moslashtirish jarayoni faqat amaliy chora-tadbirlar bilan cheklanib qolmay, balki uning nazariy va huquqiy asoslarini chuqur o'rganishni ham talab etadi. Turli mamlakatlarda ushbu jarayon turlicha yondashuvlar asosida amalga oshiriladi, bu esa nazariy va huquqiy tafovutlarning mavjudligini ko'rsatadi. Aynan ushbu tafovutlarni tahlil qilish va ularning mohiyatini ochib berish moliyaviy hisobot tizimini yanada takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega.

Shundan kelib chiqib, mazkur tadqiqotda moliyaviy hisobotlarni MHXSga moslashtirishning nazariy va huquqiy yondashuvlardagi tafovutlari o'rganiladi hamda ularning amaliy ahamiyati yoritib beriladi.

Adabiyotlar sharhi

Xalqaro moliyaviy hisobot standartlarini (IFRS) joriy etish masalasi so'nggi yillarda jahon iqtisodiyoti va buxgalteriya hisobi tizimida eng dolzarb yo'nalishlardan biri sifatida keng o'rganilmoqda. Xalqaro Buxgalteriya Standartlari Kengashi (IASB) tomonidan ishlab chiqilgan IFRS standartlari moliyaviy axborotning shaffofligi, ishonchliligi va xalqaro miqyosda taqqoslanishini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, bu ularning asosiy afzalliklaridan biridir (IASB, 2023). Ushbu standartlar investorlarga to'liq va ishonchli ma'lumot taqdim etish orqali kapital bozorlarining samaradorligini oshiradi.

IFRSni joriy etish jarayoni rivojlanayotgan davlatlar uchun alohida ilmiy qiziqish uyg'otadi. A.S. Zori Afrika davlatlari misolida o'tkazgan tadqiqotlarida IFRSni qo'llashdagi asosiy to'siqlar sifatida malakali kadrlar yetishmasligi, institutsional zaiflik va normativ-huquqiy bazaning yetarlicha rivojlanmaganligini ko'rsatadi (Zori, 2015). Muallif, shuningdek, bu muammolarni bartaraf etishda davlat siyosati va ta'lim tizimining rolini alohida ta'kidlaydi.

IFRS Foundation rasmiy manbalarida xalqaro standartlarning asosiy maqsadi global moliyaviy hisobot tizimini uyg'unlashtirish ekani qayd etilgan (IFRS Foundation, 2023). Bu esa turli mamlakatlar va kompaniyalar o'rtasida moliyaviy ma'lumotlarni solishtirish imkoniyatini yaratadi va investorlar uchun qaror qabul qilish jarayonini yengillashtiradi.

Xitoy tajribasi bo'yicha tadqiqotlar IFRSni milliy tizimga moslashtirish jarayoni bosqichma-bosqich va davlat nazorati ostida amalga oshirilganini ko'rsatadi (China IFRS Study, 2017). Ushbu yondashuv milliy iqtisodiy manfaatlarni saqlagan holda xalqaro standartlarga integratsiyani ta'minlashga xizmat qilgan.

Qozog'iston tajribasini o'rganish shuni ko'rsatadiki, IFRSni joriy etish moliyaviy shaffoflikni oshirgan va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlarini kengaytirgan (Kazakhstan Analysis, 2018). Biroq kichik biznes

subyektlari uchun ushbu standartlarni qo'llash ma'lum qiyinchiliklarni keltirib chiqargan, bu esa differensial yondashuv zarurligini bildiradi.

Rossiya tajribasida esa IFRSni milliy tizim bilan parallel qo'llash ikki tizimli muhitni yuzaga keltirib, transformatsiya jarayonini murakkablashtirgani aniqlangan (Russia IFRS Study, 2019). Bu holat kompaniyalar uchun qo'shimcha xarajatlar va hisob siyosatini uyg'unlashtirish muammolarini keltirib chiqarmoqda.

Ilmiy adabiyotlarda IFRSning afzalliklari ham keng tahlil qilingan. Ball (2006) IFRS moliyaviy axborot sifati va shaffofligini oshirish orqali kapital bozorlarining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, standartlarning murakkabligi ayrim hollarda ularni amaliyotda qo'llashni qiyinlashtirishi mumkin.

Daske va hammualliflar IFRSni qabul qilishning iqtisodiy natijalari mamlakatning institutsional rivojlanish darajasiga bevosita bog'liqligini aniqlagan (Daske et al., 2008). Ularning fikricha, kuchli institutsional muhit mavjud bo'lsa, IFRSni joriy etishdan yuqori iqtisodiy samara olish mumkin.

Zeghal va Mhedhbi esa rivojlanayotgan davlatlarda IFRSni qabul qilishga iqtisodiy ochiqlik, ta'lim darajasi va davlat siyosati kabi omillar kuchli ta'sir ko'rsatishini asoslab bergan (Zeghal & Mhedhbi, 2006).

O'zbekiston sharoitida IFRSni joriy etish jarayoni davlat tomonidan izchil qo'llab-quvvatlanmoqda. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, normativ-huquqiy baza shakllantirilmogda, biroq amaliyotda malakali kadrlar yetishmasligi va texnik infratuzilma bilan bog'liq ayrim muammolar saqlanib qolmogda (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, 2021). Shu bilan birga, IFRS bo'yicha o'quv dasturlari va malaka oshirish kurslarining kengayib borishi ushbu muammolarni bosqichma-bosqich hal etishga xizmat qilmogda.

Tadqiqot metodologiyasi: Ushbu tadqiqotda moliyaviy hisobotlarni xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS)ga moslashtirish jarayonining nazariy va huquqiy yondashuvlaridagi tafovutlarni o'rganish uchun kompleks ilmiy yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini umumilmiy va maxsus iqtisodiy tahlil usullari tashkil etadi.

Tahlil va natijalar:

1. Moliyaviy hisobotlarni MHXSGa moslashtirishning nazariy yondashuidagi tafovutlar

Moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlarga moslashtirish avvalo iqtisodiy axborotning mazmuni va uning foydalanuvchilar uchun qiymatini oshirishga qaratilgan nazariy yondashuvlarga asoslanadi.

MHXSning asosiy konseptual g'oyasi shundan iboratki, moliyaviy hisobotlar foydalanuvchilarga iqtisodiy qarorlar qabul qilishda yordam berishi lozim. Bu yondashuv hisob tizimining "axborot foydaliligi" konsepsiyasiga tayanadi.

Milliy buxgalteriya hisobi tizimlari, xususan BHMS, ko'proq ichki tartibga solish, soliq hisobi va davlat statistik ehtiyojlariga moslashtirilgan bo'lsa, MHXS investitsion qarorlar qabul qilish uchun mo'ljallangan xalqaro axborot standartidir. Bundan kelib chiqib MHXS ga quyidagicha ta'rif berishimiz mumkin.

MHXS -bu korxonalarining moliyaviy hisobotlarini xalqaro darajada yagona va taqqoslanadigan shaklda tuzish uchun ishlab chiqilgan standartlar tizimidir. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlarini (IASB -International Accounting Standards Board) tomonidan ishlab chiqiladi. Bu standartlarni ishlab chiqishdan maqsad korxonalarining moliyaviy hisobotlarini yagona, shaffof va taqqoslanadigan shaklda taqdim etishdan iborat.

MHXS ga o'tish deganda quyidagi hisobot shakllarni xalqaro standartlar asosida tuzish tushuniladi:

- * buxgalteriya balansi
- * Foyda va zarar hisoboti
- * pul oqimlari hisoboti
- * kapital o'zgarish haqidagi hisobotlar

Moliyaviy hisobotlardan tashqari soliq hisobotlari, boshqaruv hisoboti, audit xlosalari va statistik hisobotlarni ham ular bilan uyg'unlashtirish korxonaning umumiy moliyaviy axborot tizimining shaffofligi, izchilligi va taqqoslanishini ta'minlaydi.

MHXSga moslashtirish jarayonining nazariy asosini quyidagi tamoyillar tashkil etadi:

- aktiv va majburiyatlarni **bozor qiymatiga yaqinlashtirish (fair value approach)**;
- iqtisodiy mazmunning huquqiy shakldan ustunligi;
- moliyaviy ma'lumotlarning to'liqligi va ochiqligi;
- turli davlatlar korxonalari o'rtasida **taqqoslanish imkoniyatini** ta'minlash.

Moliyaviy hisobotlarni MHXSga moslashtirish jarayoni turli nazariy yondashuvlar asosida talqin etiladi. Ushbu yondashuvlar o'rtasidagi tafovutlar asosan buxgalteriya hisobining maqsadi, tamoyillari va axborotni taqdim etish usullariga bog'liq. Quyida ba'zi yondashuvlar keltirilgan:

- qoidaboz (rules-based) yondashuv -u aniq belgilangan qoidalar va ko'rsatmalarga asoslanadi. Bu yondashuv milliy buxgalteriya tizimlariga xos bo'lib, har bir operatsiya uchun batafsil tartib va cheklovlar mavjud bo'ladi. Natijada,

hisobotlar bir xil shaklda tuziladi. Biroq ayrim holatlarda iqtisodiy mazmun to'liq aks ettirilmasligi mumkin.

- tamoyillarga asoslangan yondashuv – aynan MHXS asosini tashkil etadi. Bu yerda asosiy e'tibor iqtisodiy mohiyatni aks ettirishga qaratiladi, ya'ni formadan ko'ra mazmun ustunligi tamoyili qo'llaniladi. Shu sababli bu yondashuv moslashuvchan bo'lib, professional mulohazaga katta o'rin beradi.

- Milliy va xalqaro standartlar o'rtasidagi konvergensiya (yaqinlashuv) yondashuvi-bu jarayonda davlat o'z milliy standartlarini bosqichma-bosqich MHXSga moslashtiradi. Bunda ayrim tafovutlar saqlanib qolishi mumkin, chunki iqtisodiy muhit, soliq tizimi va huquqiy baza xar xil bo'ladi.

- Nazariy jihatdan yana bir muhim tafovut – bu baholash usullari bilan bog'liq. MHXSda aktiv va majburiyatlar ko'pincha haqiqiy (fair value) bo'yicha baholanadi, milliy tizimlarda esa odatda tarixiy qiymat (historical cost) ustunlik qiladi. Bu esa moliyaviy natijalar va aktivlar qiymatining aks ettirilishida sezilarli farqlarni keltirib chiqaradi.

- Shuningdek, axborotning foydalanuvchilarga yo'naltirilganligi ham tafovutli jihat hisoblanadi. MHXS investorlar va tashqi foydalanuvchilar uchun shaffof va taqqoslanadigan axborot berishga qaratilgan bo'lsa, ayrim milliy tizimlar ko'proq davlat organlari va soliq maqsadlariga xizmat qiladi¹³.

Quyida tavovutlarni qisqacha jadval ko'rinishida ko'rishimiz mumkin:

Mezon	Qoidaboz (Rules-based) yondashuv	Tamoyilga asoslangan (Principles-based, MHXS)
Asosiy yondashuv	Aniq qoidalar va yo'riqnomalarga asoslanadi	Umumiy tamoyillar va konsepsiyalarga asoslanadi
Moslashuvchanlik	Past – qat'iy tartiblar mavjud	Yuqori – vaziyatga qarab moslashadi
Iqtisodiy mazmuni aks ettirish	Har doim to'liq aks etmasligi mumkin	“Mazmun shakldan ustun” tamoyili asosida aks ettiriladi
Professional mulohaza (judgement)	Kam qo'llaniladi	Keng qo'llaniladi
Baholash usuli	Asosan tarixiy qiymat (historical cost)	Ko'pincha haqiqiy qiymat (fair value)
Standartlar tuzilishi	Batafsil va ko'p sonli qoidalar	Umumiy va moslashuvchan tamoyillar
Foydalanuvchilarga yo'naltirilganlik	Ko'proq davlat va soliq organlari uchun	Asosan investorlar va tashqi foydalanuvchilar uchun
Taqqoslanish darajasi	Cheklangan	Yuqori (xalqaro darajada)

¹³ Kieso, D.E., Weygandt, J.J., Warfield, T.D.

→ Rules-based va principles-based yondashuvlar farqi batafsil berilgan

Mezon	Qoidaboz (Rules-based) yondashuv	Tamoyilga asoslangan (Principles-based, MHXS)
		taqqoslanadi)
Xatolik ehtimoli	Qoidalarga noto'g'ri amal qilish xavfi	Noto'g'ri professional baholash xavfi
Qo'llanish sohasi	Milliy buxgalteriya tizimlari	Xalqaro moliyaviy hisobot tizimi (MHXS)

Ushbu tamoyillar moliyaviy hisobotlarning real iqtisodiy holatni aks ettirish darajasini sezilarli darajada oshiradi va xalqaro investorlar uchun tushunarli axborot muhitini yaratadi.

2. Moliyaviy hisobotlarni MHXSga moslashtirishning huquqiy yondashuvidagi tafovutlar

O'zbekiston Respublikasida MHXSga moslashuv jarayoni huquqiy jihatdan bir nechta normativ darajalarga asoslanadi va davlat tomonidan tartibga solinadi.

Birinchi navbatda, "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonun milliy hisob tizimining asosiy huquqiy poydevorini tashkil etadi. Ushbu qonunda moliyaviy hisobotlarni yuritish tamoyillari bilan birga, xalqaro standartlarga yaqinlashish zaruriyati ham belgilab qo'yilgan.

Ikkinchi darajada Prezident farmon va qarorlari turadi. Ushbu hujjatlar orqali korporativ boshqaruvni takomillashtirish, davlat korxonalarida MHXSni joriy etish va moliyaviy hisobotlarning ochiqligini oshirish bo'yicha aniq yo'nalishlar belgilangan.

Uchinchi daraja sifatida Moliya vazirligi tomonidan ishlab chiqiladigan buxgalteriya hisobi milliy standartlari va metodik ko'rsatmalar xizmat qiladi. Ular amaliyotda MHXS tamoyillarini bosqichma-bosqich joriy etishga yordam beradi.

Shu bilan birga, amaldagi huquqiy tizimda ayrim muammolar ham mavjud bo'lib, ular transformatsiya jarayonini sekinlashtiradi. Jumladan:

- milliy va xalqaro standartlar o'rtasidagi konseptual tafovutlar;
- MHXSni to'liq implementatsiya qilish uchun yagona metodologiyaning yetishmasligi;
- malakali mutaxassislar yetishmovchiligi;
- normativ bazaning to'liq integratsiyalanmaganligi.

Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun normativ-huquqiy bazani takomillashtirish va institutsional islohotlarni chuqurlashtirish zarur bo'ladi.

Moliyaviy hisobotlarni xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (MHXS/IFRS)ga moslashtirish jarayoni nafaqat iqtisodiy va metodologik, balki huquqiy jihatdan ham turli yondashuvlar bilan tavsiflanadi. Turli davlatlarda

ushbu jarayonni tartibga solish mexanizmlari bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi va bu farqlar milliy qonunchilik tizimi, iqtisodiy rivojlanish darajasi hamda institutsional muhit bilan bog'liqdir.

Huquqiy yondashuvda asosiy tafovutlardan biri – MHXSni qo'llashning majburiy yoki ixtiyoriy ekanligidadir. Ayrim davlatlarda (masalan, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida) MHXSdan foydalanish yirik kompaniyalar uchun majburiy hisoblanadi, bu esa moliyaviy hisobotlarning yagona standart asosida shakllanishini ta'minlaydi¹. Boshqa davlatlarda esa MHXSni qo'llash ixtiyoriy bo'lib, korxonalar milliy standartlar va xalqaro standartlar o'rtasida tanlov qilish imkoniyatiga ega². Bu holat esa hisobotlarning taqqoslanishini qiyinlashtiradi.

Yana bir muhim tafovut – MHXSni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish shaklidir. Ba'zi davlatlar MHXSni to'liq qabul qilib, uni bevosita qo'llaydi (direct adoption), boshqalari esa uni milliy standartlarga moslashtirgan holda joriy etadi (adaptation)³. Moslashtirish jarayonida ayrim modifikatsiyalar kiritilishi mumkin, bu esa MHXSning asl mazmunidan chetlanishga olib keladi.

Shuningdek, huquqiy tizimlarning o'ziga xosligi ham muhim rol o'ynaydi. Kontinental huquq tizimiga ega davlatlarda buxgalteriya hisobi ko'proq davlat tomonidan qat'iy tartibga solinadi, natijada MHXSni joriy etish jarayoni sekinroq va konservativroq kechadi⁴. Aksincha, anglo-sakson huquq tizimida professional tashkilotlar va bozor mexanizmlari ustun bo'lib, MHXSni joriy etish nisbatan tez va moslashuvchan amalga oshiriladi⁵.

Bundan tashqari, nazorat va ijro mexanizmlaridagi farqlar ham huquqiy yondashuv tafovutlarini yuzaga keltiradi. Ayrim mamlakatlarda MHXSga rioya etilishi mustaqil auditorlar va regulyatorlar tomonidan qat'iy nazorat qilinadi, boshqa hududlarda esa nazorat tizimi yetarlicha rivojlanmagan bo'lishi mumkin⁶. Bu esa amaliyotda standartlarga to'liq amal qilinmasligiga olib keladi.

Umuman olganda, moliyaviy hisobotlarni MHXSga moslashtirishning huquqiy yondashuvidagi tafovutlar turli mamlakatlarda bu jarayonning samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga uyg'unlashtirish, nazorat mexanizmlarini kuchaytirish va yagona yondashuvni shakllantirish dolzarb masala hisoblanadi.

3. Transformatsiya jarayonining iqtisodiy ahamiyati

Moliyaviy hisobotlarni MHXSga moslashtirish nafaqat texnik yoki huquqiy jarayon, balki iqtisodiy rivojlanishning strategik omili hisoblanadi.

Ushbu jarayon natijasida:

- xorijiy investitsiyalar oqimi kengayadi;
- moliyaviy hisobotlarning ishonchlilik darajasi oshadi;
- xalqaro moliya bozorlariga chiqish imkoniyatlari yaxshilanadi;

- korporativ boshqaruv sifati yangi bosqichga ko'tariladi.

Shu jihatdan, MHXSga moslashuv O'zbekiston iqtisodiyotini global moliyaviy tizimga integratsiya qilishning muhim vositasi sifatida baholanadi.

Xulosa

Moliyaviy hisobotlarni MHXSga moslashtirish jarayoni nazariy jihatdan axborotning foydaliligi va iqtisodiy mazmun ustuvorligiga asoslanadi, huquqiy jihatdan esa milliy qonunchilik va xalqaro standartlar integratsiyasi orqali amalga oshiriladi. Ushbu jarayon mamlakat iqtisodiyotining shaffofligini oshirish va global moliyaviy tizimdagi raqobatbardoshligini kuchaytirishda muhim rol o'ynaydi.

No	Yondashuvi	Mazmuni	Asosiy maqsadi	Afzalliklari	Kamchiliklari
1	Nazariy lashuv	MHXS tamoyillari va hisobotlarni qayta ko'rib chiqish (true and fair view accrual basis)	Moliyaviy xalqaro standartlarga moslashtirilgan qilish	- Shaffoflik oshadi - - Tizimli joriy etish talabini qamrab oladi - - Global standartlarga mos	- Amaliyotda - Malakali talab qiladi
2	Huquqiy lashuv	Milliy qonunchilik va qonunlar asosida MHXSni joriy qilish	MHXSni qonuniy ravishda tatbiq etish	- Tizimli joriy etish talabini qamrab oladi - - Tizimli joriy etish talabini qamrab oladi - - Tizimli joriy etish talabini qamrab oladi	- Qonunchilik sekinlashib qoladi - - Shuvchanlik past
3	Nazariy- qiy ratsiya	Nazariy tamoyillarni qonun bazasiga aylantirish	Amaliyot va nazariyani birlashtirish	- Eng samarali - Barqaror - Xalqaro standartlarga mos	- Bosqichma-bosqich joriy etish talabini qamrab oladi

Mazkur jadvalda keltirilgan tahlillarga asoslanib, moliyaviy hisobotlarni MHXSga moslashtirishda nazariy va huquqiy yondashuvlarning o'zaro uyg'unligi muhim ahamiyat kasb etishi aniqlanadi. Xususan, nazariy yondashuv moliyaviy axborotning shaffofligi va taqqoslanuvchanligini ta'minlansa, huquqiy yondashuv ushbu jarayonning tartibga solinishi va barqaror amalga oshirilishini kafolatlaydi. Shu bois, ushbu yondashuvlarning integratsiyasi eng samarali model sifatida namoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PF-4611-son Farmoni "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida".

2. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni.

3. IFRS Foundation. International Financial Reporting Standards (IFRS) – Official Standards. London, 2023.
4. IASB. Conceptual Framework for Financial Reporting. 2018
5. Nobes, C., Parker, R. Comparative International Accounting. Pearson Education Limited, 2016.
6. Alexander, D., Britton, A., Jorissen, A. International Financial Reporting and Analysis. Cengage Learning, 2014.
7. World Bank. Reports on the Observance of Standards and Codes (ROSC): Accounting and Auditing.
8. Deloitte. IFRS in your Pocket. 2022.
9. PwC. IFRS Adoption by Country – Global Overview. 2023.
10. Ernst & Young (EY). International GAAP Guide. 2021.